

O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 4-martdagи PF-6181-son Farmoni va “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagи PQ-3837-son qaroriga asosan, shuningdek Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (keyingi o‘rinlarda – Sanitariya-epidemiologiya xizmati) muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish, ular faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, fuqarolik jamiyati institatlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlash hamda Sanitariya-epidemiologiya xizmati huzurida tuzilgan Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish maqsadida, **buyuraman:**

1. Sanitariya-epidemiologiya xizmati huzurida davlat organlarida namunali xizmat ko‘rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘-e’tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari vakillaridan iborat, jamoatchilik asosida ish olib boradigan Jamoatchilik kengashi tashkil etilsin.
2. Sanitariya-epidemiologiya xizmati huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq, Jamoatchilik kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi Jamoatchilik kengashining ishchi organi etib belgilansin hamda ularning zimmasiga Kengash ishini tashkiliy jihatdan ta‘minlash yuklansin.
4. Boshliqning birinchi o‘rinbosari (X.Norboev), Jamoatchilik kengashi kotibi (M.Saidova):

Markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari bilan birgalikda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va boshqa sohaga oid vazifalar hamda funksiyalarini

bajarish bilan bog'liq munozarali masalalarni Jamoatchilik kengashi muhokamasiga kiritsin;

Jamoatchilik kengashi faoliyati haqida har chorak yakuni bo'yicha Sanitariya-epidemiologiya xizmati rahbariyatiga axborot va takliflar kiritib borsin;

7. Boshliqning birinchi o'rribosari X.Norboev, Ishlar boshqaruvchisi (Q.Karimov) Jamoatchilik kengashining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlasin.

8. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi (M.Saidova) mazkur buyruqni "Ichki idoraviy hujjatlar" elektron axborot tizimi ma'lumotlar bazasiga bir kun muddatda joylashtirsin.

9. Tashkiliy ishlar va nazorat boshqarmasi (N.Toshboev) mazkur buyruqni bir kun muddatda markaziy apparatning tarkibiy tuzilmalari hamda hududiy boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

10. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni boshliqning birinchi o'rribosari X.Norboev zimmasiga yuklansin.

Boshliq

B. Yusupaliev

KIRITILDI:

Tashkiliy nazorat va axborot
tahlil bo'limi boshlig'i

N.S. Tashbaev

KELISHILDI:

Boshliqning birinchi o'rinnbosari

X.N. Norboev

Boshliq o'rinnbosari

N.S. Atabekov

Boshliq o'rinnbosari

B.J. Kurbanov

Boshliq o'rinnbosari

Q.I. Hayitov

Yuridik bo'lim boshlig'i v.v.b.

Sh.V. Islomqulova

**O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtlik va jamoat
salomatligi xizmati huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtlik va jamoat salomatligi xizmati (keyingi o'rirlarda - Sanitariya-epidemiologiya xizmati) huzuridagi Jamoatchilik kengashining (keyingi o'rirlarda - Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjalari amal qiladi.

A'zolarining Jamoatchilik kengashining maqsad yoki asosiy vazifalari doirasidan chetga chiqib, Jamoatchilik kengashi Sanitariya-epidemiologiya xizmati bilan kelishilmagan holda bildirgan fikr-mulohazalari hamda sodir etgan xatti-harakatlari Jamoatchilik kengashining nuqtai-nazarini anglatmaydi;

7. Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom va unga kiritiladigan o'zgartishlar hamda qo'shimchalar Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'i buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining maqsadi, asosiy vazifalari, funksiyalari,
huquqlari va majburiyatları**

9. Jamoatchilik kengashining maqsadi O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan siyosat va chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga ko'maklashishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun Jamoatchilik kengashi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjalarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjalari talablari ijrosini ta'minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihamlar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha Sanitariya-

epidemiologiya xizmati va uning mansabdon shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, Sanitariya-epidemiologiya xizmatining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan Sanitariya-epidemiologiya xizmatining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlар o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

10. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

kun tartibidagi masalalar, hujjatlar loyihalari, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini muayyan hudud, soha va tarmoqlarda amalga oshirilishi natijalari bo'yicha og'zaki yoki yozma ravishda o'zining ekspert fikrini bildirish hamda muhokama qilish;

jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallarni Jamoatchilik kengashi va Sanitariya-epidemiologiya xizmati rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdim etish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq majlislar va boshqa ommaviy tadbirdar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirdarda ishtirok etish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'iga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati yoki uning xodimlari ustidan kelib tushadigan shikoyatlarni talab qilib olish, o'rganish va natijasi bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan tavsiyalar berish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan fuqarolarning takliflari bilan tanishib chiqish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotlar, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatiga doir masalalar, bu borada qilinayotgan ishlar hamda majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirdarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi a'zolari o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan vaqtinchalik ishchi guruh, ekspertlar guruhlarini tuzishlari mumkin.

11. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

fugorolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga aloqadorligi to'g'risida tasdiqlanmagan ma'lumotlarni tarqatmasligi hamda aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart;

Jamoatchilik kengashi nomidan intervyu berish, uchrashuv, o'rganish va boshqa ommaviy tadbirdarda ishtirok etish faqatgina kengash raisini xabardor qilgan holda amalga oshirish;

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Yuqorida talablarni bajarish Jamoatchilik kengashi tarkibiga kiruvchi barcha a'zolar uchun majburiydir.

3-bob. Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish va a'zolarning huquq va majburiyatlari

12. Jamoatchilik kengashi a'zoligiga, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga ega, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida alohida bilim, ko'nikmalarga ega bo'lgan, shuningdek, sohani rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflarni bera oladigan, sudlanmagan, zarur kasbiy fazilatlari bo'lgan, jamiyatda alohida e'tiborga ega bo'lgan, sohada namunali xizmat ko'rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro'-e'tiborli fuqarolar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari orasidan tanlov asosida qabul qilinadi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining soni 15 nafardan kam bo'lmasligi lozim.

Bunda jamoatchilik kengashi tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkiloti vakillari tashkil etadi.

13. Jamoatchilik kengashining tarkibi Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'i buyrug'i bilan har 2 (ikki) yilda tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashining vakolat muddati yakunlanganidan so'ng o'z faoliyatini tugatadi va Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan belgilangan tartibda Kengashning yangi tarkibi shakllantiriladi.

14. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinnbosari va a'zolari kiradi.

15. Jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rinnbosari Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'i tavsiyasiga asosan, jamoatchilik kengashining a'zolari orasidan saylanadi.

Saylangan rais, rais o'rinnbosari, vakolat muddati Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan belgilanadi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining Jamoatchilik kengashi ishini tashkil etishga mas'ul xodimi bir vaqtning o'zida kengash kotibi vazifasini ham bajaradi.

16. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rinnbosari va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

kengash tarkibidan chiqish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganida;

huquqbazarlik, shuningdek jamiyatda o'rnatilgan axloq qoidalari, hamda umum e'tirof etilgan normalarni qo'pol ravishda buzuvchi va kengash a'zosi nomiga dog' tushiruvchi hamda jamoatchilik kengashi obro'siga putur yetkazuvchi harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etganda;

Kengash yoki Sanitariya-epidemiologiya xizmati nomidan shaxsiy yoki boshqa manfaatlari yo'lida foydalanganda;

Kengash a'zolarining ko'pchilik fikri bilan ovozga qo'yilganda va oddiy ko'pchilik ovozi bilan ma'qullanganda;

Nizomda nazarda tutilgan o'z vazifalarini uzrli sabablarsiz muntazam ravishda, bajarmaganda, shu jumladan jamoatchilik kengashning majlislarida ishtirok etmaganda;

vafot etganda, shuningdek sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda;

mazkur nizomning 11-bandida belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda.

17. Jamoatchilik kengashining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va unga kiritilgan o'zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 (besh) kun ichida Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

18. Jamoatchilik kengashi raisi o'z vakolatlari doirasida:

Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etadi;

Majlislarga raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi nomidan hujjatlarni imzolaydi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati majlislarida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etadi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

19. Jamoatchilik kengashining raisi bo'lмаган taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rinnbosari bajaradi.

20. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinnbosari:

rais yo'qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi ishini samarali tashkil etish bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

21. Jamoatchilik kengashining kotibi:

Jamoatchilik kengashi faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

Jamoatchilik kengashi a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning Jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rasmiy veb-saytida Jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari)ni tayyorlaydi va har chorakda Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga taqdim etib boradi;

Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rasmiy veb-saytida e'lon qilish uchun Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga taqdim etadi;

Ovoz berish natijalarini inobatga olgan holda ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha Jamoatchilik kengashi tavsiyasi loyihasini tayyorlaydi va imzolash uchun Jamoatchilik kengashi raisiga kiritadi;

Jamoatchilik kengashi kotibi Jamoatchilik kengashi tarkibiga kirmaydi.

22. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining a'zolari:

o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirdarda ishtirok etadi;

Jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihamini tayyorlaydi, ularni Jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalarini bajarilishini ta'minlaydi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni Jamoatchilik kengashiga kiritadi;

Jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

4-bob. Jamoatchilik kengashi yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish tartibi

23. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi Kengash raisi u yo'qligida esa uning o'rinosari tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida to'rt marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining navbatdan tashqari majlisi Jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida chaqirilishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashining majlisi o'tkaziladigan vaqt, sana, joy va kun tartibi a'zolar e'tiboriga majlis bo'lismidan kamida uch kun oldin yetkaziladi.

Majlis bo'lishi haqidagi xabar Kengash a'zolariga ijtimoiy tarmoqdagi sahifasiga xabarnoma jo'natish, uyali aloqa vositasiga (telefon) qo'ng'iroq qilish, ish joyiga rasmiy xabarnoma jo'natish, Sanitariya-epidemiologiya xizmati rasmiy veb-saytida e'lon berish va boshqa aloqa vositalari orqali ma'lum qilinishi mumkin.

25. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

26. Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkonini bo'lмаган holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda xisobga olinadi.

27. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, ommaviy axborot vositalari taklif etilishi mumkin.

28. Jamoatchilik kengashi majlislari onlayn, oflayn yoki gibrild formatda ham o'tkazilishi mumkin.

29. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan Jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

Shuningdek, Sanitariya-epidemiologiya xizmati va kengash a'zolarining taklifiga ko'ra, Jamoatchilik kengash majlislarida alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalar kun tartibiga kiritilishi mumkin.

30. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

31. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

32. Jamoatchilik kengashi a'zolari majlis yakuni bo'yicha Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan ko'rib chiqilishi va qarorlar qabul qilinishi majburiy bo'lgan tavsiyalar qabul qiladi.

33. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga, jamoatchilik kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

34. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zarurat tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li rasmiylashtiriladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati Jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilмаган hollarda, jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

35. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida Jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, Jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

36. Quyidagi holatlar Jamoatchilik kengashi faoliyati tugatilishiga sabab bo'ladi:
Nizomda belgilangan vakolat muddati yakunlanganidan so'ng;

O'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini yetarli darajada bajarmaganda;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyati va ishchanlik obro'siga putur yetkazilishga sabab bo'lувчи harakat yoki harakatsizlikni sodir etganda;

Kengash a'zolari umumiy sonining 30 foizdan ortiq qismi a'zolikni tark etganda;

Jamoatchilik kengashi majlisida ishtirok etgan kengash a'zolarining kengash faoliyatini tugatish to'g'risidagi ko'pchilik ovozi bilan ma'qullangan qarori belgilangan taqdirda tasdiqlanganda;

Qonunda ko'rsatilgan boshqa shu kabi Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi noqonuniy harakat yoki harakatsizliklar sodir etilganda.

37. Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'ining buyrug'i Jamoatchilik kengashi faoliyatining tugatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

5-bob. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

38. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbaalar xisobidan amalga oshiriladi.

39. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning Nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiqligi Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'i tomonidan nazorat qilinadi.

40. Jamoatchilik kengashining qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtlik va jamoat
salomatligi xizmati huzuridagi Jamoatchilik kengashi**

TARKIBI

F.I.Sh			Tel. raqami	Elektron manzili
Kengash raisi				
1.	Qurbanov Botirjon Jo'rboevich	-	O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig'i o'rinnbosari;	90 9882330 botirjon.kurbanov@ssv.uz
Kengash a'zolari:				
2.	Atabekov Nurmat Satiyozovich	-	O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig'i o'rinnbosari; Kengash raisi o'rinnbosari	90 9399002 nurmatatabekov@ssv.uz
3.	Tadjiev Botir Mirxashimovich	-	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyat markazi direktori;	90 0361456 botir.tadjiev@ssv.uz
4.	Musabaev Erkin Is'hakovich	-	Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori;	90 1869164 erkin.iskhakov@ssv.uz
5.	Saidaliev Saidmurod Saidganievich	-	Respublika o'lat profilaktikasi markazi direktori;	90 7888949 dilmurod.mirzabaev@ssv.uz
6.	Мухамедов Комил Қодирович	-	Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузуридаги тиббиёт Бош бошқармасининг Санитария- эпидемиология назорати бошқармаси бошлиғи ўринбосари;	97 4440696 komil.mukxamedov@ssv.uz
7.	Iskandarova Gulnoza Tulkunovna	-	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi “Epidemiologiya” kafedrasini mudiri;	90 1857040 nuriddin.tashbaev@ssv.uz
8.	Tursunova Dilorom Alimovna	-	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Vaksinalar va immuniprofilaktika bo'limi boshlig'i;	90 3594594 dilorom.tursunova@ssv.uz
9.	Latipov Renat	-	JSST mutaxassis ekspert (<i>kelishuv asosida</i>);	97 7716988 renat@who.int
10.	Xudaykulov Umid	-	UNICEF mutaxassis ekspert (<i>kelishuv asosida</i>);	93 5509775 umid@cdc.gov
11.	Ruziyev Murod	-	UNICEF mutaxassis ekspert (<i>kelishuv asosida</i>);	93 5505652 murod@cdc.gov

	Kodirjonovich				
12.	Karamatova Shaxinya	-	CDC mutaxassis ekspert (<i>kelishuv asosida</i>);	90 1752714	hn1@cdc.gov
13.	Uchaev Sergey	-	Ishonch va hayot NNT direktori (<i>kelishuv asosida</i>);	90 3183747	Sergey@mail.ru
14.	Maxamatov Akmal		UNDP mutaxassis ekspert (<i>kelishuv asosida</i>);	97 7615566	akmal.makhamatov@undp.org
15.	Nurov Jumabek Sattorovich	-	"Soglon avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi bo'lim boshlig` (<i>kelishuv asosida</i>);	71 2320083	fondsau@yahoo.com
16.	Bo'riyev Aslam Burxanovich	-	«TIBBIYOT DUNYOSI» MChJ Bosh direktori (<i>kelishuv asosida</i>);	71 2775090	info@td.uz
Kengash kotibi					
17.	Saidova Maftuna Ergashevna	-	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i.	99 8412590	Maftuna.saidova @ssv.uz

Izoh: Kengash a'zolari boshqa ishga o'tganda yoki egallab turgan lavozimidan ozod etilganda, ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifa va vakolatlarni bajarish yuklatilgan shaxslar uning tarkibiga kiritiladi.